

ZAMONAVIY SHE'RDA MAZMUN VA SHAKL IFODASI

(Abdulla Oripov ijodi misolida)

Firuz Buriyeva, filologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand

feruzaburiyeva79@mail.ru.

Ibrohimova Muxabbat Anvarjon qizi,

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

ibrohimovamuxabbat974@gmail.com

Annotatsiya. *Ma'lumki zamonaviy o'zbek she'riyatining yuksalish davri XX asrga to'g'ri keladi. Bu davrda har sohada, xususan, she'riyatda mustaqil, ochiq, xolisona fikrlash, erkin tafakkur qilish ustun bo'ldi. Bu kabi o'zgarishlar she'riyatning faqatgina mavzusiga ta'sir qilibgina qolmay, balki kompozitsiyasida ham bir qancha yangilanishlarga imkon berdi. Aruz vazni yonida barmoq vaznining turli xil shakllari paydo bo'la boshladi va bugungi kunga qadar rivojlanib kelmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyati kompozitsiyasi masalalari tahlil qilinadi. Xususan, she'riyatning zamonaviylikka xos xususiyatlari, poetik uslubning o'ziga xos jihatlari haqida ayrim mulohazalar berib o'tiladi. She'riyatda yangicha yondashuvlar, zamonaviy qarashlar o'zbek xalqining zabardast vakili Abdulla Oripov ijoji misolida ko'rib o'tiladi va misollar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *shoir, she'riyat, vazn, poetika, kompozitsiya, masnaviy, ruboiy, g'azal, muxammas, musaddas, qit'a.*

ВЫРАЖЕНИЕ СОДЕРЖАНИЯ И ФОРМЫ В СОВРЕМЕННОЙ ПОЭЗИИ

(На примере творчества Абдуллы Орипова)

Буриева Фируза Нормуратовна,

доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Самаркандский государственный педагогический институт, Самарканд.

Иброхимова Мухаббат Анваржон кизи,

студентка Самаркандского государственного педагогического института

Аннотация. Известно, что период расцвета современной узбекской поэзии приходится на XX век. В этот период во всех областях, особенно в поэзии, преобладало независимое, открытое, объективное мышление, свободомыслие. Такие изменения затронули не только тематику поэзии, но и позволили внести ряд нововведений в её композицию. Наряду с аруз-метром стали появляться и продолжают развиваться до наших дней различные формы пальцевого метра. В данной статье анализируются вопросы композиции современной узбекской поэзии. В частности, приводятся некоторые замечания о характерных чертах поэзии современности, специфических аспектах поэтического стиля. Новые подходы и современные взгляды на поэзию рассматриваются на примере творчества выдающегося представителя узбекского народа Абдуллы Орипова, и приводятся примеры.

Ключевые слова: *поэт, поэзия, стих, поэтика, композиция, маснави, рубаи, газель, мухаммы, мусадды, кита.*

EXPRESSION OF CONTENT AND FORM IN MODERN POETRY

(On the Example of Abdulla Oripov's Works)

Firuz Normuratovna Buriyeva,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,

Samarkand State Pedagogical Institute, Samarkand

Muxabbat Anvarjon qizi Ibrohimova,

Student of Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. *It is known that the period of the rise of modern Uzbek poetry falls on the 20th century. During this period, independent, open, objective thinking, free*

thinking prevailed in every field, especially in poetry. Such changes not only affected the subject matter of poetry, but also allowed for a number of innovations in its composition. Along with the aruz meter, various forms of finger meter began to appear and continue to develop to this day. This article analyzes the issues of composition of modern Uzbek poetry. In particular, some comments are made about the characteristics of poetry characteristic of modernity, the specific aspects of the poetic style. New approaches and modern views in poetry are considered on the example of the work of the outstanding representative of the Uzbek people - Abdulla Oripov, and examples are given.

Keywords: *poet, poetry, verse, poetics, composition, masnavi, rubai, ghazal, muxammas, musaddas, qut'a.*

She'riyat bugungi ko'rinishga kelgunga qadar o'ziga xos taraqqiyot bosqichlaridan o'tgan. Manbalarda keltirilishicha, 50-60-yillar o'zbek poeziyasida turg'unlik davri kechadi. Chunki, bu davr adabiyot vakillari kommunistik mafkura(sho'ro davri) tazyiqi ostida, ijod erkinligidan yiroq, hukumatning buyrug'ini bajarishga majbur edi. 70-yillarga kelib esa ijodda yana qizg'inlik, erkinlik, xolisona fikrlash avj oldi. E. Vohidov, A. Oripov, R. Parfi, O. Matchon, J. Kamol kabi 60-yillar, Sh. Rahmon, U. Azim, X. Davron, H. Xudoyberdiyeva kabi 70-yillar avlodi chindan ham bir necha o'n yillik sukunatdan so'ng o'zbek poeziyasida sodir bo'lgan ulkan voqea edi.[1.6]

Davrlar o'zgarar ekan, badiiy asar poetikasidagi o'zgarishlar she'riy asarlarda ham o'z aksini topa bordi. Ayniqsa, zamonaviy she'riyat shakliy jihatdan mumtoz nazmdan tubdan farqlanishi namoyon bo'ldi. Adabiyotshunoslikda she'riy kompozitsiya haqida bildirilgan rang-barang qarashlar mavjud bo'lib, bu esa lirik asarlar uchun umumiy kompozitsion talabning qat'iy mavjud emasligidandir. Xususan, zamonaviy shoirlar ijodida lirikada erkin ifoda tarziga bo'lgan intilishning ustuvorligi tufayli she'riy kompozitsiya, lirik sujet va qahramon, shuningdek, janr-shakllarga oid tamoyillarning nisbiyligi, bu boradagi qarashlarning yakrang emasligi, mudom o'zgarib borganligi ayon bo'ladi. Masalan, adabiyotshunos va olim Jamol Kamolning "She'r san'ati" risolasida lirik kompozitsiyaning an'anaviy va novatorona tabiatini belgilovchi ayrim

fikrlar diqqatimizni tortadi:“O‘zbek klassik she‘riyatida “kompozitsiya” alohida istiloh sifatida qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, bu tushuncha mavjud bo‘lgan va shoirlar uning qat‘iy talablari asosida qalam tebratganlar. Bu o‘rinda masnaviy, ruboiy, g‘azal, muxammas, musaddas, qit‘a kabi klassik she‘riy shakllarning o‘ziga xos kompozitsiyasini esga olish kifoya”. [3.165] Ko‘rinadiki, mumtoz she‘riy asarlarga kompozitsiya tushunchasi asosan janrlarning shakliy tuzilishlariga nisbatan qo‘llanilib kelingan. Zamonaviy she‘riyatda kompozitsiya tushunchasiga nisbatan qarashlarda esa N. Bualo, V.G. Belinskiy, L.Temofeev, N.Vengrov [3.168-173] kabi G‘arb nazariyotchi olimlarining qarashlariga tayanilgan holda she‘rning mazmun tomoniga diqqat qaratilgani ma‘lum bo‘ladi: “Har bir lirik asarni uch qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismda bosh fikr, bosh g‘oya ifodalandi, ikkinchi qismda yordamchi g‘oyalar ila mavzu ochilar, uchinchi qismda fikr va tuyg‘ular doirasi bekiladi. Buni xotima deb atalar, xotimada fikrlar tiyg‘ular aniqlanib, o‘tkirlanib, bir to‘kiska to‘planadi”. [4.194] Albatta, ushbu fikrlar qayd etilgan davrdan bugunga qadar she‘riyat yanada takomillashdi va uning o‘rganilishiga doir adabiy-estetik qarashlar ham turfalandi, ma‘lum darajada o‘zgardi. Ammo zamonaviy she‘rlarda kompozitsiyaning asar mazmunidan kelib chiqib belgilanishi esa tobora barqarorlashib, tamoyilga aylangani bugungi adabiyotshunoslikda ham zuhur topgan. Bu borada D.Quronovning ushbu fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinli: “Darhaqiqat, lirik asarda voqealar tizimi yo‘q, biroq bir-biriga bog‘liq o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji mavjudki, ushbu harakatning ham boshlanishi, rivojlanishi va yakuni bor. Aslida, shuning o‘zi “lirik sujet” atamasini qo‘llashga asos, biroq, yana qaytaramiz, chalkashliklardan qochish uchun uning o‘rniga *tematik kompozitsiya* atamasi qo‘llanadi. Albatta, tematik kompozitsiyada sujet unsurlari (ekspozitsiya, tugun va b.)ni izlash o‘rinsiz, bunda o‘sha uchta asosiy nuqta: *boshlanma, o‘y-fikr va his-kechinmalar rivoji hamda yakun mavjud*”. [5.44] Buni hozirgi zamon she‘riyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan har bir shoir misolida isbotlash mumkin.

Bilamizki, o‘zbek shoiri Abdulla Oripov she‘riyat olamiga so‘nmas shijoat, kuchli ishtiyok, yorqin iste‘dod, o‘tkir tafakkur, serjilo tuyg‘ular va o‘zining uslub va ohangi bilan kirib kelib, XX asr o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biriga

aylangan. O'zidan o'chmas nom, naqadar boy meros qoldirganki, uning ijodi bugungi kunda ham tarbiya vositasi bo'la oladi desak, adashmaymiz. Shoirning har bir she'ridan teran ma'no anglash mumkin, ya'ni she'rlari insoniy kechinmalar, milliy va umuminsoniy g'oyalar singdirilganligi bilan kitobxonlar qalbidan joy olib ulgurgan. Shoir nafaqat ijodi, balki jamiyatdagi faoliyati bilan ham o'zini millatning munosib farzandi va chin vatanparvar ekanligini ko'rsatdi. Shoir she'riyati mavzu jihatidan nihoyatda rang-barang, goyaviy qamrovdorligi ham keng. Zero, ijodni ijtimoiy faoliyatdan ayro deb bilmagan shoir insonlar dardini teran his etib, ularga daxldor ko'plab masalalarni qalamga olib ulgurdi. Shuningdek, mazmunning teran ifodasi uchun kompozitsion shakllar borasida ham izlanishlar olib bordi. Albatta, 60-yillar she'riyati uchun an'anaviy she'riy janr-shakllar ustuvor. Ammo har qanday ijodkor asarlarida davrga xos umumiy jihatlar va individul izlanishlar aks etib turishi ham ma'lum bo'lib, quyida A.Oripov ijodidagi shuniday izlanishlar xususida so'z yuritamiz.

Shu bilan birga, shoir ijodida bevosita zamonaviy chizgilarni uchratishimiz mumkin. Ijodkorning "Va'dalar" she'rida qo'shma vazn imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanilganining guvohi bo'lamiz.

Men qo'rqaman Yangi yilga

She'rlar bitmoqdan,

O'quvchimga yo'q narsani

Va'da etmoqdan.

Aytildimi - bajarilsa

Va'da va tilak,

Yo'qsa, bir yil ko'zdan yiroq

Yurmoqlik kerak[2.87].

Abdulla Oripov she'riyatida tilga olingan mavzularni ulkan bir daraxtga o'xshatadigan bo'lsak, yirik bir shoxini Vatan(milliy istiqlol, tinchlik va boshqalar), yana bir katta shoxni hayot(inson haqidagi mulohazalar) va boshqa yana bir ulkan shoxni sevgi deb nomlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizga ma'lumki, adabiyotda hech bir shoir yoki yozuvchi yo'qki, o'z asarlarida sevgini madh etmagan, muhabbatni tilga olmagan. Shu jumladan, Abdulla Oripov ijodida ham muhabbat shabadalari esib

turuvchi satrlar talaygina. Tuzilishiga keladigan bo'lsak, aksariyat she'rlari ana'anaviy usulda ya'ni to'rtliklardan iborat, har bir satrida qofiya, mantiqiylik, teran ma'no, tizimlilik sezilib turadi. Ko'pincha to'rt misra she'rda bir olam ma'noni ifoda qilib bergani ijodkorning yuqori salohiyat egasi ekanligidan dalolat beradi:

Tashna qultum suvni orzu etgaydir,

Oltin piyolani axir netgaydir .

Bemorga mol-dunyo va 'da aylama,

Bir og 'iz shirin so 'z unga etgaydir[3.384]

Yuqorida keltirib o'tilgan to'rtlikda shoir juda sodda, xalqona, ammo mazmun jihatdan ancha chuqur, yuksak uslubdan foydalangan. Shoir ijodida yuzlab bu kabi insonning ko'ngil torlarini tebratuvchi jozibador jummalarga duch kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 2-jild: She'rlar va dostonlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.- 492 b.
2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 8-jild: She'rlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.- 322 b.
3. Жамол Камол. Шеър санъати. Сайланма. Олти жилдлик. IV жилд. – T.: “Янги аср авлоди”, 2018. – 492 б.
4. Ойбек. Асарлар. Ўн томлик. IX том. – Тошкент, 1974. – Б.194.
5. Қуроноф Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 128 б.
6. O'zbek zamonaviy she'riyati antologiyasi: to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Muhammad Siddiq Rahmatov. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. - 536 b.